

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER FONDI – YER KADASTRING OBYEKTI SIFATIDA

Saidova Nafisa Xudayor qizi

“TIQXMMI” MTuning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Chorvachilik va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash fakulteti”, “Yer kadastri va yer tuzish” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Maqolamning mazmuni shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasi yer fondi – yer kadastrining obyekti sifatida, yerlardan foydalanish maqsadi, yer fondi, yer fondi toifasi, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan yerlar haqida batafsil ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Yer fondi, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va b. maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar, o‘rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari, yer fondi toifalari.

Yer fondi bu ma‘lum hududda, uning chegaralari ichidagi (mamlakatda, viloyatda, tumanda va hokazo) xo‘jalik yuritish mulkchilik egalik qilish, foydalanish, ijara obyektlari hisoblangan barcha yerlarning yig‘indisidir.

Yer fondi — mamlakatning jami yer resurslari maydoni. Yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar — sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan (lal mikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko‘p yillik mevali (mevasiz) daraxtzorlar va tokzorlar va b. ekinlar bilan band yerlar va b.;

2) aholi punktlari (shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punkti) yerlari — shaharlar va shaharchalar, shuningdek, qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va b. maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar — ko‘rsatilgan maqsadlarga foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

4) tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar — alohida muhofaza etiladigan tabiiy xududlar egallagan, tabiiy davolash omillari ga ega bo‘lgan yerlar, shuningdek, ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar — tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;

6) o‘rmon fondi yerlari — o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek, o‘rmon bilan qoplangan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari o‘chun berilgan yerlar;

7) suv fondi yerlari — suv ob‘yektlari, suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv ob‘yektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

8) zaxira yerlar — yuqorida nomlangan Yer fondi toifalariga ajratilmagan, ma‘lum ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sabablarga kura xalq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari bo‘lmagan yerlar.

Yer fondi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar har xo‘jalik yilning 1-yanvarga nisbatan tuziladi. Yer fondi ma‘lumotlari xo‘jalik, tuman, viloyat va mamlakat miqyosida beriladi (jadvalga q.). Bunda Yer fondi tarkibidagi yer turlarining maydon va sifat o‘zgarishlari o‘z aksini



topadi. O'zbekistonda Yer fondining asosiy qismi (62% ga yaqini) qishloq xo'jaligi yer turlari toifalariga mansub, qolgan qismi fu-qarolar yerlari — tomorqa (1%), o'rmon va to'qayzorlar (3,2%) va qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlardan (34,2%) iborat. Shundan sug'oriladigan yerlar jami yer resurslarining 9,6% tashkil etishiga qaramay respublika qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan yalpi mahsulotning 90% shu yerlardan olinadi.

Yer huquqining alohida qismida O'zbekiston Respublikasi yer fondi toifalarining huquqiy holati o'rganiladi. Yer fondi toifasining huquqiy holati deganda – ushbu toifada yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishning yer qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi "Davyergeodezkadastr" Davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2020 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. Respublika bo'yi cha korxona, tashkilot, muassasalar, fermer xo'jaliklari va fuqarolarning foydalanishidagi jami yerlar 44892,4 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4329.0 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi yer fondi yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 8-moddasiga binoan 8 ta toifaga bo'linadi. Yerlar asosiy foydalanish maqsadiga qarab yer fondi toifalariga bo'linadi. Yerlardan asosiy foydalanish maqsadi — yerlardan yer-kadast r hujjatlarida aks ettiriladigan aniq maqsadlarni ko'zlab foydalanishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibi va shartlaridir. Yerlarni yer fondining bir toifasidan boshqasiga o'tkazish yerlardan asosiy foydalanish maqsadi o'zgargan taqdirda amalga oshiriladi. Yerlarni yer fondi toifalariga bo'lish va bir toifadan boshqasiga o'tkazish yer uchastkalarini berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Yer fondining toifasi yer uchastkalarini berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan qabul qilinadigan yer uchastkalarini berish to'g'risidagi qarorlarda, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi guvohnomalarda, shartnomalarda, boshqa hujjatlarda, davlat yer kadastri hujjatlarida ko'rsatiladi. Yerlarni bir toifadan boshqasiga o'tkazishning belgilangan tartibini buzish bunday o'tkazish faktlarini g'ayriqonuniy deb va ular asosida tuzilgan yer uchastkalariga doir bitimlarni haqiqiy emas deb topishga, shuningdek yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olishni rad etishga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yer huquqi. Daslik. Mirzaabdullayeva Matlyuba Rustamovna, Muqumov Abdug'ani Muratovich, Hamidov Fayzullo Ramazonovich, Uzakova Go'zal Sharipovna. 110-111-bet.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yer_fondi
3. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/173/books/9ovGk2Iyl0UpquiGb9eUBKfRgakhZ7PY7jdT5dwq.pdf>

